



GENDER ROLLARI VA OILAVIY MUNOSABATLARNING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Abduazimov Xurshidbek

Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodim

xurshidbekabduazimov@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15705263>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 14-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 20-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

gender rollari, oilaviy munosabatlar, oilaviy tuzilma, gender tengligi, globallashtirish, raqamli transformatsiya, ijtimoiy stereotiplar, oilaviy madaniyat.

ABSTRACT

Maqolada gender rollari va oilaviy munosabatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil etiladi. Gender rollarining tarixiy shakllanish dinamikasi, ularning oilaviy tuzilma va munosabatlar tizimidagi namoyon bo'lish shakllari hamda zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'sirida yuz berayotgan o'zgarishlar chuqur o'rganiladi. Tadqiqot gender tengligini rivojlantirish va zamonaviy oilaviy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Gender rollari va oilaviy munosabatlar har qanday jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida markaziy o'rin tutadi. Oila shaxsning ijtimoiylashuvi jarayonida asosiy makon bo'lib, gender stereotiplari va rollarining shakllanishida hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Aynan oilaviy muhit orqali erkaklik va ayollik haqidagi ijtimoiy tasavvurlar shakllanadi, genderni oid tushunchalar va me'yorlar mustahkamlanadi. Shu bilan birga, gender rollari oilaviy munosabatlarning xarakterini, qaror qabul qilish mexanizmlarini va oiladagi kuch taqsimotini belgilaydi. Bugungi kunga kelib, globallashtirish, raqamlashtirish va madaniy o'zgarishlar jamiyatdagi gender rollarini sezilarli darajada o'zgartirmoqda. An'anaviy erkaklik va ayollik tasavvurlari asta-sekin yangilanib, ularning oilaviy tuzilma va munosabatlarga ta'siri ham boshqacha tus olmoqda. Ko'plab zamonaviy oilalarda tenglikka asoslangan hamkorlik munosabatlari shakllanayotgan bo'lsa-da, patriarxal qarashlar hanuzgacha kuchli bo'lib, bu jarayonda hal qiluvchi to'siq sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy ongda ildiz otgan "erkak rahbar, ayol esa itoatkor" kabi stereotiplar tenglik sari harakatlarni sekinlashtiradi. Gender rollari va oilaviy munosabatlarning o'zaro aloqadorligini o'rganish bugungi global ijtimoiy-siyosiy muhitda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarning gender tengligini ta'minlash bo'yicha ilgari surayotgan maqsadlari, xususan, Barqaror rivojlanish maqsadlarining 5-maqsadi (gender tengligini ta'minlash) aynan oilaviy darajadagi o'zgarishlarni ham nazarda tutadi. Zero, gender tengligiga erishishda oilaviy muhitni isloh qilish, stereotiplarni bartaraf etish va teng imkoniyatlar madaniyatini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbekiston jamiyatida ham so'nggi yillarda gender tengligini mustahkamlash, oilaviy zo'ravonlikning oldini olish, ayollar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan

tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” Qonun gender tengligini konstitutsiyaviy tamoyil darajasiga ko‘targan bo‘lsa¹, 2025-yilgi O‘RQ-1053-son Qonun maishiy zo‘ravonlikdan jabrlanganlarni real himoya qilishni nazarda tutadi². Demak, raqamlashtirish oiladagi transformatsiyani kuchaytirayotgan bo‘lsa, huquqiy yangilanishlar bu jarayonni barqarorlik va tenglik sari yo‘naltirmoqda.

Biroq amaliy hayotda an’anaviy gender stereotiplari oilaviy munosabatlarga hamon kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli gender rollarining tarixiy shakllanishini, ularning oilaviy tuzilma va munosabatlar tizimidagi namoyon bo‘lish shakllarini, zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta’sirida yuz berayotgan o‘zgarishlarni chuqur tahlil qilish nafaqat ilmiy, balki amaliy nuqtai nazardan ham dolzarbdir.

Asosiy qism. Gender rollari va oilaviy munosabatlarning zamonaviy ijtimoiy ko‘rinishlari haqida so‘z borganda, birinchi navbatda, genderning o‘zi qanday shakllanishi va amal qilishi masalasiga e’tibor qaratish lozim. Bu borada **Judith Butlarning** “*Gender Troubles*” asarida ilgari surilgan yondashuvi alohida ahamiyatga ega³. U genderni ijtimoiy-harakatlar tizimi ya’ni, odamlar o‘zlariga yuklatilgan jinsiy rollarni ijtimoiy maydonda qanday “ijro etishlari” orqali shakllanadigan fenomen deb hisoblaydi. Butlarning fikricha, erkak yoki ayol sifatida tan olinish bu biologik emas, balki doimiy takrorlanuvchi ijtimoiy aktyorlik natijasidir.

O‘zbekiston jamiyatida ham gender rollarining avloddan avlodga o‘tib kelayotgan an’anaviy shakllari masalan, “ayol tarbiyachi”, “erkak esa boquvchi” kabi yondashuvlar aynan shu performativ model orqali davom etayotgani kuzatiladi.

Bunday struktural kuch munosabatlarining jamiyatda qanday ierarxialashganini tushunish uchun esa **Raewyn Connellning** “Hegemonyal erkaklik” nazariyasi muhim metodologik asos bo‘la oladi. Connell jamiyatda bir jinsiy model ayniqsa, murosasiz, hukmron erkaklik qanday qilib boshqa erkaklik turlarini (masalan, muloyimlik, emotsional ochiqlik) va ayollikni nazorat ostida ushlab turishini tushuntiradi⁴. O‘zbekiston sharoitida bu ayniqsa aniq ko‘zga tashlanadi: masalan, qaror qabul qilishda erkaklarning ustun pozitsiyasi, ayollarning o‘zini ifoda etishida “sabrli”, “bosiq” bo‘lish kutilishi Connell aytgan gender ierarxiyalarning aniq ifodasidir.

Mazkur nazariy yondashuvlar o‘zbek olimlarining amaliy kuzatuvlari bilan ham uyg‘unlashadi. Jumladan, **N. Yusupov**ning “*Gender tengligi va oilaviy qadriyatlar uyg‘unligi masalalari*” nomli tadqiqotida O‘zbekiston jamiyatidagi gender stereotiplari va ularning oilaviy hayotdagi namoyon bo‘lishi empirik asosda tahlil qilinadi⁵. Yusupova so‘rovnomalar orqali shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab respondentlar hali-hanuz erkakni “oilada yagona rahbar” deb biladi, ayolning asosiy roli esa “bola tarbiyasi va uy ishlariga mas’uliyat” bilan bog‘langan. Biroq, ayni tadqiqotda ta’kidlanishicha, yosh avlod orasida bu yondashuvlar asta-sekin o‘zgarib bormoqda. Ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va ta’lim olish imkoniyati ortib borayotgani, ularning oila ichida ham faol subyektga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Oilaviy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi bevosita jamiyatdagi umumiy ijtimoiy munosabatlar xususiyatiga bog'liq. Ya'ni, ma'lum bir davr yoki hudud jamiyatida qanday ijtimoiy tizim hukmron bo'lsa, oilalardagi ichki munosabatlar ham shu tizim qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Masalan, an'anaviy qishloq jamoalarida yashovchi oilalarda patriarxal tartib hukm surib, unda ota oila boshlig'i, asosiy qaror qabul qiluvchi; ona esa bolalar tarbiyasi va ro'zg'or uchun mas'ul ijrochi sifatida namoyon bo'ladi. Ko'p avlodli oilalarda bunday patriarxat yanada kuchli ya'ni katta ota yoki boboning so'zi hamma uchun qonun, katta onaning uy ichidagi mavqei yuqori bo'lgan. Bunday tuzilma asrlar davomida saqlanib kelgan bo'lib, aslida jamiyatdagi mulkchilik munosabatlari va mehnat taqsimotining oiladagi aksidir. Erkaklar jamoat va xo'jalik ishlarida yetakchilik qilgan, ayollar esa uy ichidagi mehnatni zimmasiga olgan va erkakka bo'ysungan.

Sharq falsafasida oila tinchligi va mustahkamligi yuksak qadriyat sanaladi. Xalqimiz orasida "Oila – kichik davlat" degan naql yuradi. Darhaqiqat, oilada jamiyatning mini modeli mujassam: unda ham o'zaro burch va mas'uliyatlar taqsimoti, hokimiyat va itoat tamoyillari, mehr-oqibat va tarbiya jarayonlari mavjud. Milliy urf-odatlarimizda oilaviy totuvlik eng oliy baxt sifatida ulug'lanadi. Shu bois turmush o'rtog'ining xiyonati yoki ajralish kabi hodisalar ijtimoiy ongda salbiy baholanadi. Aksincha, farzandlarni ulg'aytirib, ularni jamiyatga foydali insonlar qilib voyaga yetkazgan ota-onalar hurmat-e'tiborga sazovor bo'ladi. Oila va jamiyat o'zaro munosabatlarini turli ijtimoiy nazariyalar ham o'ziga xos izohlaydi. Masalan, strukturaviy-funksional yondashuvga ko'ra, oila jamiyat barqarorligini ta'minlovchi asosiy bo'g'in bo'lib, undagi har bir a'zo o'ziga xos funksiyani bajarishi muhim. Bu nazariya doirasida an'anaviy gender rollari oilaning tabiiy tuzilishi sifatida ko'riladi.

Boshqa tanqidiy nazariyalarda esa oila tuzilmasi jamiyatdagi kuchlar va hukmronlik munosabatlarining ifodasidir, degan qarash ilgari suriladi. Jumladan, feminist nazariya oiladagi patriarxal tartibni ayollarni tobe holatda ushlab turuvchi ijtimoiy mexanizm deb baholaydi. Ayollar va erkaklar rollarining oilada noteng taqsimlanishi jamiyat miqyosida gender tengsizlik va hokimiyat muvozanatsizligiga olib kelishi ta'kidlanadi. Haqiqatan ham, agar oilada qaror qabul qilish huquqi faqat erkakka tegishli bo'lib, ayolning fikri inobatga olinmasa, bu holat xotin-qizlarning jamiyatdagi faoliyatiga ham salbiy ta'sir etadi. O'z navbatida, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy tengsizliklar oiladagi kuchlar nisbatida ham aks etadi. Erning daromadi baland bo'lib, xotin iqtisodiy jihatdan turmush o'rtog'iga qaram bo'lsa, oilada erning so'zi mutlaq ustun bo'lishi tabiiy. Demak, oilaviy munosabatlar va gender masalasi bir-biriga uzviy aloqador. Oilada qaror topgan rollar tizimi jamiyatdagi gender tartibotini belgilaydi, jamiyat miqyosida yuz berayotgan gender tenglik yo'lidagi o'zgarishlar esa, tabiiy ravishda, oiladagi munosabatlarga ham ta'sir qiladi.

Jamiyatda yuz berayotgan gender o'zgarishlari eng avvalo oiladagi erkak va ayol rollarida namoyon bo'lmoqda. Bugungi kunda ko'plab oilalarda turmush o'rtoqlar yangi sharoitlarga moslashishga harakat qilmoqda. Ayol ham ishlash va o'zini ro'yobga chiqarishga intilmoqda, erkak esa faqat iqtisodiy ta'minot bilangina cheklanmasdan, farzand tarbiyasida ham ishtirok etishi kutilmoqda. Biroq, amalda bu jarayon ancha murakkab kechmoqda. An'anaviy tarbiya olgan er-xotinlar ko'p hollarda eski rollardan voz kecha olmaydi: erkak o'zini "oilani boqish" bilan cheklab, uy yumushlarini butunlay ayol zimmasiga tashlab qo'yadi; ayol esa ishda band bo'lsa-da, baribir "uy ishi meniki" deb, yordam so'rashni odobga xilof deb biladi. Natijada yosh oilalarda kelishmovchiliklar kelib chiqishi kuzatilmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarning muhim sabablaridan biri uy xo'jaligidagi vazifalarning noadolatli taqsimlanishi va genderga oid kutilmalarning mos kelmasligidir. Xususan, ayol ham to'la ish kuni band bo'lib, charchab qaytgach, uyda yana barcha yumush va farzand parvarishini yolg'iz o'zi zimmasiga olishiga to'g'ri keladi. Bu esa ortiqcha jismoniy va ruhiy zo'riqish (haddan tashqari charchoqlik) keltirib chiqarib, turmush o'rtoqlar o'rtasida norozilik paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Erkak esa, o'z navbatida, an'anaviy "er xonadon boshlig'i" mavqeini yo'qotib qo'yishdan cho'chib, uy ishlari yoki farzand parvarishiga aralashishni istamasligi mumkin. Bunday vaziyatda er-xotin o'rtasidagi keskinlik kuchayib boradi va natijada ajralish holatlari oshadi. Rasmiy statistikaga ko'ra, so'nggi o'n yillikda (2015–2022) 35 yoshgacha bo'lgan yosh oilalar o'rtasidagi ajralishlar soni 27 % ga oshgan(jadval 1). Ayrim hududlarda bu ko'rsatkich yanada yuqori masalan, Farg'ona vodiysida har uchta oiladan biri ajrashmoqda, ajralishlarning 70 % ini ayollarning tashabbusi tashkil etib, ular asosiy sabab sifatida "ruhan charchoq" va "turmush o'rtog'ining oilaviy mas'uliyatni bo'lishmasligi"ni ko'rsatganlar⁶. Ushbu faktlar oiladagi gender nomutanosiblik jiddiy oqibatlariga olib kelayotganini va uni hal etish zarurligini ko'rsatadi.

Jadval 1 ⁷



O'zbekistonda oilaviy ajrimlar soni (2020-2024)

Yosh oilalar misolida gender rollarining qayta shakllanishi ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Ko'pgina zamonaviy juftliklar an'anaviy oilaviy modeldan farqli ravishda, "turmush o'rtoq hamkor" tamoyiliga asoslangan tenglikka erishishga intiladilar. Bunday oilalarda qarorlarni er va xotin birgalikda qabul qilishadi, iqtisodiy va maishiy majburiyatlarni ham imkon qadar adolatli taqsimlashga harakat qilishadi. Psixologlar va sotsiologlar bunday yondashuv oilaviy baxtivorlik va barqarorlikni oshirishini ta'kidlashmoqda. Haqiqatan ham, vazifalarning teng bo'lishi, har ikki tomon bir-birining mehnatini qadrlashi nizolarni kamaytirib, oila mustahkamligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ammo oilada to'liq gender tenglikka erishish amalda oson emas va bu jarayonda ijtimoiy norma va qarashlarning o'zgarishi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oilaviy munosabatlarga katta avlodning aralashuvi, an'anaviy qarashlarning bosimi yosh juftliklarga ta'sir o'tkazib, ularning yangicha hayot tarzini qabul qilishini qiyinlashtiradi. Masalan, yangi turmush qurgan kelin-kuyov alohida yashashga intilmasa, bir uyda qaynota-qaynonalar bilan birga istiqomat

qilganda, odatda, kelinning barcha uy yumushlarini bajarishi odat tusiga aylanadi. Yosh er esa ota-onasi oldida “xotiniga bo’ysunib qolgan” degan tamg’adan qo’rqib, rafiqasiga uy ishlarida yordam bermaslikka intiladi. Bunday holatlarni o’zgartirish uchun nafaqat yoshlarning o’z ongi, balki butun oila a’zolarining dunyoqarashi yangilanishi talab etiladi.

Shu bilan birga, ijobiy tendensiyalar ham kuzatilmoqda. Ba’zi oilalar allaqachon erkak va ayol rollarini zamon talablariga moslashtirib, muvaffaqiyatli hayot kechirishmoqda. Masalan, er-xotin birgalikda biznes yuritayotgan, farzand parvarishini navbatma-navbat bo’lishib bajaradigan, maishiy yumushlarni imkon qadar yengillashtirish uchun texnik vositalar va xizmatlardan foydalanuvchi oilalar soni ortib bormoqda. Bunday oilalarda ayol ham, erkak ham o’z salohiyatini to’la ro’yobga chiqarish imkoniga ega bo’lib, ayni paytda farzandlar uchun ham sog’lom tarbiya muhiti yaratiladi. Jamiyatda bu kabi namunaviy oilalarning ko’payishi gender rollarining sog’lom shakllanishi va xotin-qizlar hamda erkaklar o’rtasida haqiqiy tenglikka erishish yo’lida muhim ahamiyat kasb etadi.


Hozirgi kunda O’zbekistonda gender tengligiga erishish yo’lida bir qator yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Eng avvalo, chuqur ildiz otgan **gender stereotiplari** masalasi turibdi. Patriarxal qarashlar jamiyat ongida hanuz kuchli bo’lib, ular nafaqat ayollarning imkoniyatlarini cheklaydi, balki ko’p hollarda zo’ravonlik va tazyiqlarni ham oqlab qo’yishga xizmat qiladi. Masalan, “erkak – bosh, xotin – itoatkor” degan tamoyilga qattiq amal qilinadigan muhitlarda ayolga nisbatan qo’pol munosabat yoki hatto qo’l ko’tarish “oilani saqlash” bahonasida oqlanishi mumkin. Oila ichidagi zo’ravonlikning ko’plab hollari aynan shunday stereotiplarning oqibati ekanini tadqiqotlar tasdiqlaydi⁸. Gender stereotiplari bolalikdan shakllanar ekan, ularni yo’qotish eng qiyin ijtimoiy-psixologik vazifalardan biridir.

Ikkinchi muammo **iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklardir**. Ayollar mehnat bozorida hanuz zaif pozitsiyada turibdi. Ular orasida ishsizlik darajasi yuqori, ko’p hollarda norasmiy sektorda band bo’lishadi yoki past maoshli ishlarni bajarishadi. O’rtacha hisobda ayollarning daromadi erkaklarnikidan ancha kam. Ayollar erkaklar oladigan 1 AQSh dollariga nisbatan taxminan 62,5 sent ishlab topadi⁹. Ayollar orasida kambag’allik darajasi ham nisbatan yuqori bo’lib, bu ularning ta’lim olish va sog’liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlariga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Uchinchi muammo ayollarning qaror qabul qilish jarayonlarida yetarlicha ishtirok etmasligi. Yuqorida qayd etilganidek, parlament va mahalliy kengashlarda ayollar ulushi oshgan bo’lsa-da, ijro hokimiyati va biznesning yuqori qatlamida ular juda kam(jadval 2). Masalan, hozirgi kunda birorta viloyat hokimi yoki vazir ayol emas, yirik kompaniyalar rahbariyatida ham xotin-qizlar juda sanoqli. Siyosiy partiyalar va davlat boshqaruvida ayol kadrlar sonini ko’paytirish masalasi dolzarb bo’lib turibdi. Bu borada kvotalar joriy etish, ayollarning liderlik malakalarini oshirish dasturlarini kengaytirish kabi choralar taklif etilmoqda.

O’zbekistonda ayollarning iqtisodiy resurslarga kirish darajasi

jadval 2¹⁰



To'rtinchidan, **huquqiy madaniyat va huquqni qo'llashdagi kamchiliklar** ham ahamiyatlidir. Ayollarni kamsitish qonunan taqiqlangan, zo'ravonlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda bu normalar hamisha to'liq ishlamayapti. Ba'zi joylarda huquqni muhofaza qilish amaliyotida oilaviy janjallarga "aralashmaslik", "nomus qilmanglar, yarashib olinglar" qabilidagi yondashuvlar uchramoqda. Ayrim mahalla faollari va mutasaddilar oilani saqlab qolishni ayolning manfaatidan ustun qo'yib, zo'ravon erkakni kechirishga undaydigan hollar kuzatilgan¹¹. Bu esa yangi qonunlarning haqiqiy samarasini pasaytiradi.

Yana bir jiddiy masala ijtimoiy infratuzilmaning yetarli emasligidir. Ayniqsa, qishloq joylarda suv, gaz, elektr ta'minotidagi muammolar uy yumushlarini og'irlashtiradi, natijada ayollar katta vaqt va energiyasini kundalik maishiy ishlar (masalan, qo'l bilan kir yuvish, hovlidan suv tashish, o'tin yoki ko'mir tayyorlash) ga sarflashga majbur bo'lmoqda. Bu vaqt va kuchni ular ta'lim olish yoki kasbiy rivojlanishga yo'naltira olmasligi tabiiy. Shuningdek, reproduktiv salomatlik masalalarida ham ayrim stereotiplar zarar yetkazmoqda: masalan, ba'zi hududlarda qizlarning ginekolog ko'rigiga borishi "uyat" deb ko'riladi, homilador ayollarning muntazam tibbiy tekshiruvlardan o'tishi sust, oqibatda onalar sog'lig'iga doir muammolar (masalan, homiladorlik yoki tug'ish paytida asoratlar) kelib chiqishi hollari uchrab turadi¹².

Sanab o'tilgan muammolar bilan bir qatorda, istiqbolda ijobiy siljishlar ham mavjud va ularni yanada kengaytirish lozim. Avvalo, davlat miqyosida siyosiy iroda kuchayganini ta'kidlash joiz. Gender tenglikni ta'minlash bo'yicha qator strategik hujjatlar va "yo'l xaritalari" qabul qilinib, izchil amalga oshirilmoqda. Ularning ijrosi doirasida mansabdor shaxslar va xodimlar uchun gender bo'yicha treninglar o'tkazilmoqda, normativ-huquqiy hujjatlar gender ekspertizasidan o'tkazilayotir. BMT agentliklari va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, masalan, ayollar rahbarligini qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi faolligini oshirishga qaratilgan maxsus loyihalar yo'lga qo'yilgan. Bu

tashabbuslar ayollarning siyosiy-iqtisodiy ishtirokini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Ta'lim sohasi ham istiqbolda muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Mutaxassislar fikricha, maktab va oliy ta'lim dasturlariga gender tenglik mavzularini kiritish, o'quvchilarda yoshligidan teng huquqlilik g'oyalarini shakllantirish lozim. Bu borada ayrim qadamlar tashlangan – pedagogik kadrlarni tayyorlashda gender masalalari bo'yicha alohida kurslar joriy etilayotgani haqida ma'lumotlar bor. Kelgusida har bir maktab va oliygohda gender tenglikni targ'ib qiluvchi ma'rifiy ishlarni kuchaytirish rejalashtirilgan.

Eng asosiysi, jamiyatda asta-sekin ong o'zgarishi sezilmoqda. Bugungi kunda yosh avlod vakillarining dunyoqarashi avvalgi avlodlarga qaraganda ochiqroq. Global axborot oqimi tufayli ular gender tenglikning zamonaviy jamiyat uchun nechog'li zarur ekanini yaxshiroq anglab yetishmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda ayollar huquqlarini himoya qiluvchi guruhlar paydo bo'lmoqda, bloger va jurnalistlar gender mavzularini yoritmoqda. Bu muammolarni yashirmay, keng jamoatchilik muhokamasiga olib chiqish muhitini yaratmoqda.

Ayni paytda, erkaklar orasida ham ushbu o'zgarishlarni qo'llab-quvvatlayotganlar ko'paymoqda. Ayollar mavqei faqat ayollar masalasi emas, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ekani anglanmoqda. Zero, jamiyatning yarmi bo'lgan xotin-qizlarning intellektual va iqtisodiy salohiyatidan to'liq foydalana olmaslik mamlakat rivojlanishiga to'siqdir. Agar ayollar mehnat bozorida erkin va teng ishtirok etib, yuqori lavozimlarda ham o'z qobiliyatlarini ko'rsatsa, bundan eng avvalo jamiyatning o'zi yutadi farovonlik oshadi, innovatsiya jarayonlari tezlashadi. Shu bois kelgusida gender tenglikka erishish yo'lida amalga oshirilajak ishlar nafaqat ijtimoiy-adolat nuqtai nazaridan, balki iqtisodiy va demografik barqarorlik nuqtai nazaridan ham ulkan ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, gender rollari va oilaviy munosabatlar masalasi O'zbekistonda murakkab tarixiy jarayonlar va hozirgi davr o'zgarishlari bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lmoqda. Patriarxal an'analardan meros qolgan stereotiplar hali ham barqaror bo'lsa-da, davlat siyosati darajasida va jamoatchilik ongida bosqichma-bosqich yangilanish jarayoni kechaymoqda. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash faqat huquqiy yoki axloqiy ehtiyoj emas, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va har bir oila farovonligi uchun zarur omildir. Gender tenglik yo'lida O'zbekiston jamiyati oldida turgan vazifalar an'anaviy qarashlarni yengib o'tish, ta'lim-tarbiya orqali yangi avlod ongiga teng huquqlilik tamoyillarini singdirish, qonun va dasturlarni hayotga samarali tatbiq etish izchil amalga oshirilsa, jamiyatning ijtimoiy-falsafiy qiyofasida sifat o'zgarishi ro'y beradi. Erkak va ayolning jamiyat hamda oiladagi roli uyg'unlashgan, teng va hamkorlikka asoslangan hayot tarziga erishish esa O'zbekistonning kelgusi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi O'RB-562-son <https://lex.uz/docs/-4494849>
2. "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi to'g'risida"gi O'RB-1053-son <https://lex.uz/docs/7469379>
3. Abigail Warren, "Who's afraid of gender?" by Judith Butler explores new ideas about gender ideology, 2024, <https://lhslance.org/2024/arts-entertainment/book-review-whos-afraid-of-gender-by-judith-butler-explores-new-ideas-about-gender-ideology/?utm>

4. R. W. Connell and James W. Messerschmidt, *Hegemonic Masculinity: Rethinking the Concept*, 2016,
5. https://www.etnologia.uw.edu.pl/sites/default/files/hegemonic_masculinity_connell_and_messerschmidt.pdf?um
6. N. Yusupova, "Gender tengligi va oilaviy qadriyatlar uyg'unligi masalalari", 2022 https://api.moiti.uz/media/book/Конференция_15-sentabr.pdf?utm
7. Lazizaxon Baxtiyor-qizi Kadiradjieva, "Gender Aspects of Household Duties Distribution as a Factor of Conflicts and Divorces in Young Families in Uzbekistan" 2025. ijmmu.com
8. UNDP, "Negative Impact of Gender Stereotypes and Patriarchal Attitudes on Gender Equality in Uzbekistan", 2022, <https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/2023-03/Gender%20Stereotypes%20final%20%284%29.pdf#:~:text=Gender,a%20woman%20cannot%20spend%20money>
9. CABAR.asia, Uzbekistan: It's All About Stereotypes, https://longreads.cabar.asia/femalebusinessuz_eng#:~:text=According%20to%20the%20State%20Committee,every%20dollar%20earned%20by%20men
10. Kamola Sobirova, How gender stereotypes are changing in Uzbekistan, 2022, <https://kz.kursiv.media/en/2022-05-11/how-gender-stereotypes-are-changing-in-uzbekistan/#:~:text=In%202019%20Uzbekistan%20adopted%20a,choice%20but%20to%20commit%20suicide>

INNOVATIVE
ACADEMY